



QORAMOLCHILIKNING XALQ XO`JALIGIDAGI AHAMIYATI VA RIVOJLANISHI

Jo`rayeva Sharifaxon Akbarjonovna

Andijon qishloq xojaligi va agrotexnologiyalar insituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7234299>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 10th October 2022

Online: 21st October 2022

KEY WORDS

go'sht, sut mahsulotlari, chorvachilik, golshtin seleksiyasi, jahon genofondi, zoogigshiyenik.

ABSTRACT

Qoramolchilik - chorvachilikning asosiy sohalaridan biri, aholini go'sht, sut mahsulotlari hamda yengil sanoatni teri va boshqa xom ashyo bilan ta'minlaydi. Ushbu maqolada Qoramolchilikning ahamiyati, holati va rivojlanishi haqida so'z yuritilgan.

Qoramolchilik chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan biri xisoblanadi. Planetamizda yashayotgan axolining chorvachilik maxsulotlariga bo'lgan talabini jumladan, sutga 99 %, go'sht maxsulotlariga bo'lgan talabini esa qariyb 50 % ni qoramolchilik soxasi yetishtirib beradi. Qoramolchilikda yuqori sifatli maxsulotlar ishlab chiqarish dolzarbligini saqlagan xolda, yildan-yilga muammo bo'lib bormoqda.

Bizning mamlakatimizda qoramolchilikni rivojlantirish moddiy texnika bazasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, shu asosda tarmoqni jadal rivojlantirib, kam mexnat va moddiy mablag'lar sarflab yuqori maxsulot ishlab chiqarishga qaratilgan. Bunday ishlar albatta ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslangan bo'lishi kerak. Ilg'or amaliyot natijalari shuni tasdiqlaydiki, qoramolchilikda intensiv texnologiyani qo'llash xar bir sigirdan 3,5-4,5 ming kg sut sog'ib olishni va buqalarning

kunlik o'sishini esa 1000 g ga yetkazish mumkinligini tasdiqlaydi.

Taqqoslovsh maqsadida Yevropa ittifoqi mamlakatlaridagi sigirlarning sut maxsuldorlik ko'rsatkichlarini keltirish mumkin. Yevropa ittifoqidagi 15 ta mamlakatda 1998 yil 22 ml bosh sigir bo'lib, ularning xar biridan o'rtacha 5610 kg sut sog'ib olingan. Eng yuqori sut maxsuldorligiga yega bo'lgan sigirlar Isroil mamlakatida kuzatilib, 224 ming bosh sigir bu mamlakatda urchitiladi va ularning xar biridan o'rtacha 11,5 ming kg sut sog'ib olingan. Sigirlarning maxsuldorligini yuqori bo'lishida faqat sut ishlab chiqarish texnologiyasini qo'llash yemas balki ularning podasidagi sigirlarning jahon genofondiga xos bo'lgan, xususan AQSh va Kanadaning golshtin seleksiyasiga mansubligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoramollarning sut va go'sht maxsuldorligini oshirish maqsadida bir nechta muammolar mavjud; naslchilik va



seleksiya ishlarini olib borish, mustaxkam oziqa bazasini yaratish shular jumlasidandir. Mamlatimizda sutdor va go'shtdor qoramollarning genetik potensialidan 30-50 % foydalanilmoqda xolos. Bu imkoniyatni yuqori ko'rsatkichlarga yerishtirish maqsadida hayvonlarni oziqlantirishni yaxshilash muxim ahamiyat ksb etadi.

Bundan tashqari qoramollarni asrash sharoitlari zoogigshiyenik talablar asosida bo'lmog'i lozim.

Qoramolchilik 2 ta; sut va go'sht yo'nalishiga bo'linadi. Dunyoda ishlab chiqarilayotgan go'sht salmog'ining 4 dan 1 qismini qoramol go'shti tashkil etadi (P.I.Zelenkov, A.I.Baranikov, 2005). Qoramol go'shti sut va go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikdan olinadi. Sutdor qoramolchilikda go'sht ishlab chiqarish ikkinchi darajali maxsulot xisoblanadi. Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikda esa asosiy maxsulot bo'lib qoramol go'shti ishlab chiqarish xisoblanadi. Go'shtdor qoramolchilik rivojlangan mamlakatlarda 522 ml qoramol urchitilib dunyodagi jami qoramollarning 39 % ni tashkil qiladi. Ulardan 30,8 mln tonna go'sht olinib u jami ishlab chiqariladigan go'sht salmog'ida 53 % dir.

Qoramolchilik qadimdan hozirgi O'zbekiston hududida intensiv sharoitlarda va yaylov usulidarivojlangan. 19-asr oxiriga qadar Qoramolchilikning asosiy qismini kammahsul, jussasi mayda jaydari hamda zebusimon qoramollar tashkil qilgan. 20-asrning 20-yillaridan boshlab respublikada mahalliy va zebusimon qora-mollarni madaniy qoraola, qizilcho'l va shvits zotlari bilan chatishtirish asosida mahsuldor podalar guruhini shakllantirish hamda nasldor sof zotli qoramollarning reproduktor xo'jaliklarini tashkil etish,

davlat va kooperativ xo'jaliklari Qoramolchilik sut-tovar fermalarini rivojlantirish va sutchilik komplekslarini tashkil etish, Qoramolchilikni ixtisoslashtirish, konsentratsiyalash va sanoat texnologiyalari asosiga o'tkazish ishlari amalga oshirildi. Qoramolchilikning sut, sut-go'sht, go'sht hamda naslchilik yo'nalishidagi xo'jaliklar, naslchilik zavodlari, xo'jaliklari va fermalari tashkil etildi. natijada 80-yillarga kelib qoramollar zotdorligi 98—99% ga yetkazildi. Nasldor sigirlarning 3800–4100 kg sut beradigan podalari barpo etildi. Go'shtchilik komplekslarida parvarish qilingan novvoslar vazni 12—13 oyligida 400–420 kg ga ko'tarildi. Tumanlarda tashkil etilgan xo'jaliklararo bo'rdoqichilik korxonalarida qoramollarni jadal boqish va bo'rdoqilash ijobiy natijalar berdi. Qoramolchilik amaliyotining taraqqiy etishida ilg'or tajriba va fan yutuqlari muhim rol o'ynadi. 1932-yilda chorvachilik tajriba st-yasining va 1939-yilda O'zbekiston chorvachilik i.t. institutining tashkil etilishi chorvachilik va xususan Qoramolchilik sohasida muhim burilish bo'ldi. Qoramolchilik rivojining tipologik, ozuqa va seleksiya asoslari ishlab chiqildi hamda amaliyotga keng joriy qilindi. 1924-yilda qoramollar soni 1229,4 ming boshni, shu jumladan, sigirlar 407,5 ming boshni tashkil qilgan bo'lsa, 1991-yilda bu ko'rsatkichlar tegishlicha 4580,8 va 1856,4 ming boshga, 2004-yilda 5873 va 2556,7 ming boshga yetdi. 1924-yilda go'sht yetishtirish (tirik vaznda, ming t) 84,0, 1991-yilda 789, 2003-yilda 935,5; sut yetishtirish tegishlicha 262,0, 3034,2 va 4030,3 ni tashkil etdi. sigirlardan o'rtacha sut sog'ib olish 1924-yilda 400 kg dan 1990-yilda 1685 kg ga, qoramollarni go'shtga topshirish vazni 150 kg dan 401 kg gacha ko'tarildi. Keyingi 14—15 yil mobaynida



qoramollar soni va yetishtirilgan yalpi chorva mahsulotlari hajmi o'sdi. Qoramolchilik sohasida tashkil etilgan fermer xo'jaliklarida mahsuldorlik ko'rsatkichlari yaxshilandi. 1990 — 2003-yillarda respublikada qoramollar soni 1293,9 ming boshga yoki 28,3%ga, sigirlar soni 700,3 ming boshga yoki 37,7% ga ko'paydi.

O'zbekistonda Qoramolchilik bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari O'zbekiston chorvachilik institutida olib boriladi. Qoramolchilik fan sifatida oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining zoomuhandislik va veterinariya fakultetlarida o'qitiladi.

Xorijiy davlatlarda sut yo'nalishidagi Qoramolchilik, ayniqsa, Gollandiya, Daniya, Germaniya, Isroil, AQSH, Kanada, Yaponiya

va Yangi Zelandiyada rivojlangan (sigirlarning o'rtacha sut sog'imi 8—11 ming kg). Go'shtdor q. AQSH, Fransiya, Angliya, Italiya, Kanada va Avstraliyada tashkil etilgan (go'sht olinadigan 14—15 oylik novvoslar vazni 500—550 kg). Dunyo mamlakatlarida urchitilayotgan qoramollar soni 1,33 mlrd. bosh atrofida (1999). Jahonda turli tabiiy iqlim sharo-itlariga moslashgan 250 dan ortiq qoramol zotlari boqiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Qoramolchilik bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari O'zbekiston chorvachilik i.t. institutida olib boriladi. Qoramolchilik fan sifatida oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining zoomuhandislik va veterinariya fakultetlarida o'qitiladi.

References:

1. Nosirov U. N., Qoramolchilik, T., 2001.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
3. https://kitobxon.com/oz/kitob/qoramol_parvarishlash_sirlari
4. Ziyouz.com